XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-oktabr VI-85-98-11-160-K/24 Toshloq tumani

Toshloq tumanidagi nomsiz ziyoratgoh va qabristonlarni nomlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Respublika komissiyasining 2024-yilning may, iyun, sentyabr oylaridagi Ekspertiza xulosalariga va tuman hokimiligining ayrim geografik obyektlari nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reestriga kiritish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yichaRespublika komissiyasining 2024-yilning may, iyun, sentyabr oylaridagi Ekspertiza xulosalarga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlaming nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb ko‘rsatilgan 7 ta geografik obyektning nomi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman Statistika bo‘limi (M.Axrorov), tuman Qurilish bo‘limi (Sh.Ismoilov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Akbarov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan ziyoratgoh va qabristonlarni, shuningdek yangidan nomlangan qabriston va ziyoratgohlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani

shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Qurilish bo‘limi (Sh.Ismoilov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Akbarov) bilan birgalikda hududlarda nomlangan va nomlari o‘zgartirilgan ziyoratgoh va qabristonlarining nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror “Toshloq tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

DJURABAYEV
ABDUKAXXOR
ABDUVAXIDOVICH

Xalq deputatlari Toshloq tumani Kengashining
2024-yil 26-oktabrdagi
VI-85-98-11-160-K/24 -son qaroriga
1-ilova

T/R	Geografik obyektning turi	Joylashgan o'rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Ziyoratgoh	Axshak MFY	Nomsiz	Akkosha	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	Qabriston	Qo'rg'oncha MFY	Nomsiz	Jiyda mozor	Jiydalimozor - "Geografik obyektlar nomlarining o'zbek tilida yozilish"i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	Qabriston	Qumariq MFY	Nomsiz	Qumariqtepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	Qabriston	Soybo'yi MFY	Nomsiz	Soybo'yi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5	Qabriston	Quyi Yakkatut MFY	Nomsiz	Chorbog'	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6	Qabriston	Quyi Yakkatut MFY	Nomsiz	Quyi Yakkatut	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7	Qabriston	Besarang mahallasi	Nomsiz	Qovunchi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8	Qabriston	Jarqishloq mahallasi	Nomsiz	Yangi Jarqishloq	Qonun hujjatlari talablariga

					muvofiq.